

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TOYIROV AZIZBEK TOLIBOVICH

**JAHON SAVDO TASHKILOTI (JST)NING SUBSIDİYALAR HAQIDAGI
QOIDALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA ULARNI
O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA TATBIQ ETILISHI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Tashkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Content of the abstract of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD)
Оглавление автореферета диссертации доктор философии (PhD)

Toyirov Azizbek Tolibovich

Jahon Savdo Tashkilotining subsidiyalar haqidagi qoidalarini huquqiy tartibga solinishi va ularni O‘zbekiston qonunchiligida tatbiq etilishi.....3

Toyirov Azizbek Tolibovich

The legal regulation of World Trade Organization rules on subsidies and their implementation in Uzbekistan’s legislation.....22

Тойиров Азизбек Толибович

Правовое регулирование правил Всемирной Торговой Орзаназации по субсидиям и их имлементации в законодательстве Узбекистана.....40

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

List of published works

Список опубликованных работ..... 45

**TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 RAQAMLI ILMIY
KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI

TOYIROV AZIZBEK TOLIBOVICH

**JAHON SAVDO TASHKILOTI (JST)NING SUBSIDİYALAR HAQIDAGI
QOIDALARINI HUQUQIY TARTIBGA SOLINISHI VA ULARNI
O‘ZBEKISTON QONUNCHILIGIDA TATBIQ ETILISHI**

12.00.10 – Xalqaro huquq

**Yuridik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Yu1260 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Toshkent davlat yuridik universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, ingliz, rus (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tsul.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Rustambekov Islambek Rustambekovich, yuridik fanlar doktori, professor
Rasmiy opponetlar:	Fayziyev Shuhrat Kasanovich yuridik fanlar doktori, professor Usmanova Surayyo Bultakovna yuridik fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasining Bojxona instituti


Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat yuridik universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.07/03.06.2023.Yu.22.04 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil 28-avgust soat 12.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Sayilgoh ko'chasi, 35-uy, Tel.: (99871) 233-66-36 faks: (99871) 233- 37-48, e-mail: info@tsul.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat yuridik universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1403-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100047, Toshkent shahar, Amir Temur ko'chasi, 13. Tel.: (99871) 233-66-36)


Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 11-avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 11-avgust, 10-raqamli reestr bayonnomasi)




S.S. Gulyamov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, yuridik fanlar doktori, professor


Sh.N. Raxmanov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kattibi, yuridik fanlar doktori, dotsent


D.N. Maxkamov
ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
goshidagi ilmiy seminar raisi, yuridik
fanlar doktori, professor

Kirish (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyod subsidiyalarni tartibga solish xalqaro savdo huquqining eng murakkab va bahsli sohalaridan biri bo'lib qolmoqda hamda hali-hanuz olimlar va siyosat yurituvchilarning oldida jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Subsidiyalar va kompensatsiya choralariga oid Bitim (SKCH Bitimi)¹ doirasida nisbatan murakkab huquqiy asoslar ishlab chiqilgan bo'lishiga qaramay, mavjud normalar subsidiyalar sababli yuzaga keladigan bozordagi buzilishlarni yetarli darajada qamrab olmayapti. JST nizolarni hal qilish bo'yicha statistikasi bu holatni yaqqol ko'rsatadi: 141 ta ish subsidiyalar bilan bog'liq bo'lib, bu JSTda ko'rib chiqilgan barcha nizolarning qariyb 25 % tashkil etadi.² JSTning 2001-yilgi Doha vazirlar deklaratsiyasida aynan subsidiyalarni tartibga solishga oid mavjud huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish zarurati, xususan rivojlanayotgan va eng kam rivojlangan davlatlarning manfaatlarini inobatga olish lozimligi alohida ta'kidlangan.³

Jahonda bugungi kunda global miqyosda subsidiyalarni tartibga solish an'anaviy yondashuvlardan tashqariga chiqayotgan yangi muammolarga duch kelmoqda. Bular qatoriga baliqchilik sohasidagi subsidiyalar,⁴ mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlash, texnologik tadqiqotlar va innovatsiyalarni moliyalashtirish, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash hamda ekologik barqaror ishlab chiqarish usullarini joriy etish kiradi.⁵ Ko'plab JST a'zolari ushbu bo'shliqlarni ikki va ko'p tomonlama bitimlar orqali to'ldirishga urinmoqda va natijada ko'p tomonlama savdo tizimini to'ldiruvchi subsidiyalarni tartibga soluvchi murakkab huquqiy tarmoq vujudga kelmoqda.⁶ Doha raundi muzokaralarining to'xtab qolganligi hamda JST ichida keng qamrovli islohotlar bo'yicha siyosiy irodaning yetishmasligi global subsidiyalar tartibini samarali takomillashtirishni yanada murakkablashtirmoqda.

Yangi O'zbekistonda esa JSTga a'zo bo'lish iqtisodiy liberallashtirish va jahon savdo tizimiga integratsiyalashuv yo'lidagi muhim ustuvor yo'nalishlardan biridir. O'zbekistonning JSTga a'zolik jarayoni 1994-yilda boshlangan bo'lib, u JST tarixidagi eng uzoq davom etayotgan muzokaralar sirasiga kiradi. 2005–2016 yillar oralig'idagi 11 yillik tanaffusdan so'ng, Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bu jarayon siyosiy darajada yangilangan islohotlar asosida qayta boshlangan.⁷ 2023-yil 11-sentabrdagi Prezident farmonida qabul qilingan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida milliy qonunchilikni JST qoidalari va standartlariga muvofiqlashtirish 93-maqсад sifatida belgilangan. Shuningdek, Prezident 2023-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining 78-sessiyasida to'liq a'zolikni

¹ Subsidiyalar va kompensatsiya choralariga oid Bitim, 15 Aprel, 1994, Jahon Savdo Tashkiloti shakllantirgan Marrokash Bitimi, 1A Ilova.

² JST nizolarni hal qilish statistikasi.

³ Doha Ministerlar Deklaratsiyasi. JST hujjati. WT/MIN(01)/DEC/1 (Nov. 20, 2001).

⁴ Jahon savdo tashkilotining Baliqchilik sohasidagi subsidiyalar to'g'risidagi Bitimi

⁵ https://www.wto.org/English/thewto_e/acc_e/a1_ouzbekestan_e.htm

⁶ Jamshid Normatov, Uzbekistan's Long Way to the World Trade Organization, L Europe en Formation October 2018, p.4. <https://www.researchgate.net/publication/329419462>

⁷ <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>

O‘zbekistonning tashqi iqtisodiy siyosatining markaziy yo‘nalishi sifatida alohida ta’kidlagan.¹ Shu boisdan, JSTga a‘zo bo‘lish doirasida Yangi O‘zbekiston qonunchiligini, xususan SKCH Bitimi doirasidagi majburiyatlar bilan to‘liq uyg‘unlashtirish va a‘zolikdan keyingi subsidiyalarni tartibga solishdagi muammolarga tayyorgarlik ko‘rish zarurati tug‘ilmoqda.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti quyidagi O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, Soliq kodeksi, 2003-yil 11-dekabrda № 554-II-sonli “Muhofaza choralari, antidempin va kompensatsiya bojlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2023-yil 3-iyuldagi № O‘RQ-850-sonli “Raqobat to‘g‘risida”gi Qonun, 2004-yil 26-avgustdagi № 662-II-sonli “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi Qonun, shuningdek, quyidagi Prezident farmonlari: 2022-yil 28-yanvardagi № PF-60-sonli “2022–2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi № PF-158-sonli “O‘zbekiston – 2030 strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 2-iyundagi № PF-181-sonli “O‘zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a‘zo bo‘lishini jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2024-yil 3-iyundagi № PF-85-sonli “Bozor islohotlarini jadallashtirish va O‘zbekiston Respublikasi milliy qonunchiligini JST bitimlariga muvofiqlashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmon hamda mavzuga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ma‘lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovasion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘ganilganligik darajasi. JSTga oid turli sohalarda tadqiqot olib borgan olimlar qatoriga J. Normatov, D. Xurbonova, D. Ilina, K. Koziev, X. Islomxo‘jayev, A. Umirdinov, V. Turakulov, Z. Komilova, Sh. Shodixo‘jayev, U. Yoqubxo‘jayev, R. Azxo‘jayeva, S. Usmova, I. Pugach, Y. Yusupova, Z. Berdinazarov, Sh. Almosova, va D. Abdurasulova kiradi. Xususan, Sh. Almosova intellektual mulk huquqlarining huquqiy tartibga solinishi, R. Azxo‘jayeva JST doirasida xalqaro sog‘liqni saqlash standartlari bilan bog‘liq nazariy va amaliy masalalar, Z. Komilova JST doirasida innovatsion va integratsion jarayonlar, Sh. Shodixo‘jayev JSTda nizolarni hal etish mexanizmlari bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. J. Normatov O‘zbekistonning JSTga a‘zo bo‘lish jarayonidagi muammolarni tahlil qilgan, Z. Ubaydullayev, B. Toshev va A. Kamarov esa xalqaro savdo huquqining turli jihatlarini o‘rgangan.²

Shunga qaramay, JST doirasida “Erkin savdo bitimlari” kontekstida xalqaro huquqiy jihatdan subsidiya tartibga solinishi bo‘yicha to‘liq monografik tadqiqot hali amalga oshirilmagan.

Ushbu tadqiqot, shuningdek, Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi (MDH) davlatlari olimlarining ilmiy ishlariga tayanadi. Xususan, D. Dvornikov, A. Azarov, Yu. Matveyev, N. Karpova, V. Shumilov va A. Tsepov Jahon savdo

¹ <https://president.uz/en/lists/view/6679>

² **Izoh 1.:** Mazkur olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida keltirilgan

tashkiloti doirasida ayrim huquqiy masalalarni tartibga solish bo'yicha tadqiqotlar olib borganlar.¹

Bundan tashqari, tadqiqot G'arb va Sharqning yetakchi olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy ishlarga ham tayanadi. Ular qatoriga W. den Bosch, D. Prevost, D. Coppens, S. Austin, S. Lester, B. Mercurio, A. Davies, W. Zdouc, J. Crawford, M. Ortiz, C. Bellmann, J. Hepburn, J. Wouters, Y. Abe, S. Sekine, R. Adlung, S. Miroudot, R. Anderson, K. Bacon QC, S. Bigdeli, L. Borlini, M. Cremona, L. Hancher, G. Horlick, P. Clarke M. Trebilcock, J. Jackson va J. Lee² kiradi. Ushbu yetakchi olimlarning tadqiqotlari ushbu dissertatsiyaning ilmiy asoslarini shakllantirishga muhim hissa qo'shgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat yuridik universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq hamda "Milliy qonunchilikni Jahon Savdo Tashkiloti qoidalari va normalari bilan uyg'unlashtirish muammolari" mavzusidagi loyiha natijalari doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Subsidiya va Kompensatsion Choralar Bitimi (SKCH Bitimi) hamda Erkin savdo bitimlari doirasida subsidiyalarni tartibga solish masalalariga e'tibor qaratish, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini SKCH Bitimi normalari bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, subsidiyalarni tartibga solishning xalqaro va milliy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar va tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqot vazifalari:

JST doirasida subsidiya tartibga solinishining nazariy va ilmiy asoslarini o'rganish;

Erkin Savdo Kelishuvlari (ESK) doirasida savdo bilan bog'liq subsidiya tartibga solinishi jarayonini tahlil qilish;

JST huquqida subsidiya tartibga solishning huquqiy asoslarini o'rganish;

JST doirasida subsidiya tartibga solishning institutsional mexanizmlarini ko'rib chiqish;

JSTga a'zo davlatlar tomonidan subsidiya qoidalarining JST va ESK doirasida qanday amalga oshirilayotganini baholash;

Yevropa Ittifoqi, Rossiya, AQSh, Yaponiya va Qozog'iston kabi xorijiy yurisdiksiyalarda subsidiya tartibga solish bo'yicha huquqiy tajribani ESK kontekstida qiyosiy huquqiy tahlil qilish;

O'zbekiston qonunchiligining JST subsidiya qoidalariga mosligini baholash va milliy qonunchilikni JST kelishuvlariga muvofiqlashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

JST subsidiya qoidalarini tahlil qilish va ushbu sohada JST a'zolari zimmasiga yuklatilgan asosiy majburiyatlarni aniqlash;

O'zbekiston ichki huquqiy tartibotining JST subsidiya qoidalariga zid jihatlarini aniqlash;

Ushbu nomuvofiqliklarni bartaraf etish va JST huquqiga mos kelishini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

¹ **Izoh 2.:** Mazkur olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan

² **Izoh 3.:** Mazkur olimlarning asarlari foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida keltirilgan

Tadqiqotning obykti sifatida Jahon Savdo Tashkiloti (JST) doirasida subsidiyalarni tartibga solish bilan bog'liq xalqaro-huquqiy munosabatlar tizimi olingan.

Tadqiqotning predmeti esa JST bitimlari asosida subsidiyalarni tartibga solish tizimi, Erkin savdo bitimlari doirasida subsidiyalarni huquqiy boshqarishning shakllanib borayotgan mexanizmlari, ularni amaliy qo'llash holatlari, xorijiy davlatlar qonunchiligidagi solishtirma huquqiy yondashuvlar, shuningdek, O'zbekiston milliy qonunchiligini JST subsidiyalar to'g'risidagi normalari bilan uyg'unlashtirishda yuzaga keladigan muammolarni o'rganishni qamrab oladi.

Tadqiqot usullari. Mazkur dissertatsiyada ilmiy bilishning quyidagi usullaridan keng foydalanilgan: sohadagi hodisalarni o'rganish, tizimli tahlil, mantiqiy tahlil, umumlashtirish, deduksiya, qiyosiy huquqshunoslik hamda statistik ma'lumotlarni tahlil qilish usullari.

Tadqiqotning ilmiy yangiliklari quyidagilardan iborat:

O'zbekiston Respublikasining "Muhofaza choralari, antidemping va kompensatsiya bojlari to'g'risida"gi Qonunini xalqaro savdo standartlariga, xususan, Jahon savdo tashkilotining Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi Bitimida belgilangan "aniq yo'naltirilganlik mezonlari"ga muvofiqlashtirish zarurati asoslab berilgan. Bunday holatlarga subsidiyalarning ayrim korxonalar, tarmoqlar yoki guruhlar foydasiga bevosita ajratilishi, yoki eksport samaradorligi yoki import o'rniga mahalliy mahsulotlardan foydalanish sharti bilan berilishi lozimligi asoslantirilgan;

asosiy tushunchalarga – "kompensatsiya chorasi", "kompensatsiya boji", "zarar", "rivojlangan davlat", "eksportchi", "importchi" va "uchunchi tomon" kabi atamalarga aniq huquqiy ta'riflar berilgan holda, yangi "Kompensatsiya choralari to'g'risida" maxsus qonunni qabul qilish zarurati asoslab berilgan;

zararni aniqlash bo'yicha umumiy huquqiy prinsiplarni tizimlashtirish, "moddiy zarar tahdidi" kabi innovatsion yondashuv va unga tegishli sabab-oqibat bog'liqligini aniqlash mexanizmlari konseptual jihatdan ishlab chiqilish zarurati asoslantirilgan;

import qilingan texnologik uskunalarni ikki yil ichida maqsadli xarid qilish sharti bilan foyda keltiruvchi imtiyozlarni olishga imkon beruvchi yangi shartli imtiyoz mexanizmi nazariy jihatdan ishlab chiqilib, huquqiy zarurati asoslantirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligini Jahon savdo tashkilotining Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to'g'risidagi Bitimi hamda zamonaviy Erkin savdo bitimlari talablariga muvofiqlashtirish uchun zarur bo'lgan batafsil huquqiy va me'yoriy asos ishlab chiqilgan;

"Muhofaza choralari, antidumping va kompensatsiya bojlari to'g'risida"gi Qonunni xalqaro savdo normalariga, xususan, subsidiya "ayrim korxonalar, tarmoqlar yoki guruhlariga aniq ajratilgan" yoki "eksport samaradorligi yoki mahalliy mahsulotlardan foydalanish sharti bilan berilgan" holatlariga oid SKCH Bitimidagi aniq mezonlarga muvofiqlashtirish zarurati asoslab berilgan;

JST me'yorlariga ko'ra amal qiluvchi subsidiya chegarasi – ya'ni, 1 foizdan yuqori bo'lgan kompensatsiya boji – tushuntirib berilgan va milliy qonunchilikda ushbu mezonga muvofiq yondashuv ishlab chiqilgan;

O'zbekiston qonunchiligida vaqtinchalik bojlar joriy etish bo'yicha aniq muddat va mezonlarning mavjud emasligi JST SKCH Bitimining 17.1-moddasiga zid ekanligi aniqlangan. Shu asosda, vaqtinchalik choralarning muddati maksimal to'rt oy bilan cheklanishi, faqat istisno holatlarda uzaytirilishi va subsidiya mavjudligi hamda zarar yetkazilgani to'g'risidagi asoslangan dastlabki dalillar bilan mustahkamlanishi lozimligi asoslab berilgan;

Erkin iqtisodiy zonalar (EIZ) tajribasi tahlili orqali, bojxona imtiyozlari bilan bog'liq maxsus zonalarda berilayotgan rag'batlar eksport samaradorligiga yoki savdoga to'sqinlik qiluvchi shartlarga bog'liq bo'lmasligi kerakligi asoslantirilgan va bu orqali JST qoidalariga zid bo'lgan normalarning oldi olinishi mumkinligi asoslab berilgan;

subsidiyalar dasturlarini nazorat qilish va ularning JST standartlariga muvofiqligini ta'minlash bo'yicha vakolatli, maxsus monitoring organini tashkil etish zarurligi asoslab berilgan. Ushbu organ muntazam auditlar o'tkazishi, subsidiyalarning yo'naltirilganligi va savdoga ta'sirini baholashi, shuningdek, shaffoflikni ta'minlovchi ochiq hisobotlarni e'lon qilishi lozimligi asoslantirilgan;

O'zbekistonning savdo siyosatida "zarar" mezonini qayta ko'rib chiqish zarurligi asoslab berilgan. Xususan, "jiddiy zarar" atamasi o'rniga JSTda qabul qilingan "moddiy (asosli) zarar" tushunchasini joriy etish, hamda zarar mezonlarini JST standartlariga muvofiq milliy siyosatga integratsiya qilish taklif etilgan. Bu esa savdo nizolarida zarar darajasini ilmiy asosda baholash metodologiyasi uchun zamin yaratishi asoslantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi nufuzli manbalardan olingan nazariy ma'lumotlardan foydalanish orqali ta'minlanadi. Jumladan, xalqaro huquq normalari, milliy qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti, statistik ma'lumotlar hamda sud pretsedenti asosida tahlillar olib borilgan. Ushbu materiallar rasmiy manbalardan olinib, xorijiy tajriba va milliy hamda xalqaro ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar bilan boyitilgan. Ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar tegishli vakolatli organlar tomonidan ma'qullangan va tasdiqlangan bo'lib, ularning amaliy ahamiyatga egaligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ko'tarilgan masalalarning dolzarbligi hamda unda bayon etilgan xulosalar va takliflarning mustahkam ilmiy asosga ega ekanligida namoyon bo'ladi. Ushbu tadqiqot natijalari ilmiy va tadqiqot faoliyatiga o'z hissasini qo'shib, "JST huquqi", "JST doirasida nizolarni hal etish", "Xalqaro huquq" va "Xalqaro tashkilotlar huquqi" kabi fanlarning nazariy bazasini boyitadi. Tadqiqot natijalari o'quv jarayonida – ma'ruzalar, amaliy mashg'ulotlar hamda o'quv-metodik materiallarni tayyorlashda qo'llanilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati esa qonunchilik jarayonlarida qo'llanilish imkoniyati bilan bog'liq bo'lib, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish va ularga o'zgartirishlar kiritishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot natijalari savdoga ta'sir qiluvchi subsidiyalarni amalga oshirish

va ularni nazorat qilish tizimini takomillashtirish orqali huquqni qo'llash amaliyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Tadqiqot natijalaridan quyidagilarda foydalanilgan:

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan ishlab chiqilinayotgan yangi O'zbekiston Respublikasining "Kompensatsiya choraari to'g'risida"gi qonunda foydalanildi. Jumladan, mazkur qonunning 3 – moddasida keltirilgan "kompensatsiya chorasi", "kompensatsiya boji", "zarar", "rivojlangan davlat", "eksport qiluvchi", "import qiluvchi" "manfaatdor tomon" atamalarini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025 yil 10 fevraldagi 03-81-00161 sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif xalqaro savdo huquqi standartari bilan uyg'unlikni ta'minlashda, milliy qonunchilikda huquqiy aniqlikni oshirish hamda savdoni himoya qilish choralari qo'llash uchun aniq huquqiy asos yaratishga, kelajakda subsidiyalar bilan bog'liq vaziyat vujudga kelganda, jarayonni to'g'ri sharhlashga va baholashga xizmat qiladi;

dissertatsiyada "kompensatsiya chorasi", "zarar" va "de minimis" kabi asosiy huquqiy tushunchalarni chuqur va keng qamrovli tarzda qayta ta'riflash zaruriyati ilgari surilib, bu borada berilgan takliflar III bobdagi asosiy qoidalarni shakllantirishda foydalanildi, shular jumlasidan, 9-moddaning keltirilgan "zararni aniqlashning umumiy prinsiplari", 12-moddaning "moddiy zarar yetkazish xavfi" va 13-moddaning "sababiy bog'liqlik" qoidalarini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025 yil 10 fevraldagi 03-81-00161 sonli dalolatnomasi). Mazkur takliflar savdo buzilishlariga qarshi kurashishda huquqiy bazaning samaradorligini oshirish bilan birga, Subsidiyalar va kompensatsiya choralari o'ldirishga oid JST majburiyatlariga to'liq rioya etilishini ta'minlashga, ichki sanoat tarmoqlarini samarali himoya qilishga, halol raqobatni rag'batlantirishga va xalqaro savdo huquqi prinsiplariga amal qilish borasida yanada kuchliroq asos bo'lishga xizmat qiladi;

O'zbekistonning savdo siyosatida zarar standartini qayta belgilash ehtiyoji, xususan, "jiddiy zarar" atamasini "muhim (asosli) zarar" tushunchasiga almashtirish hamda JST tomonidan belgilangan zarar mezonlarini milliy siyosatga integratsiya qilish orqali savdo nizolarida zarar darajasini aniqlashga oid takliflardan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-sentabrdagi "Tadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PF 228-son Farmonini ishlab chiqishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025 yil 10 fevraldagi 03-81-00161 sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif huquqiy aniqlikni mustahkamlash, eksport qiluvchilar zimmasidagi ortiqcha moliyaviy yukni kamaytirish hamda tashqi savdo operatsiyalarida yanada katta moslashuvchanlikni ta'minlashga, milliy savdo tartibga solinishini xalqaro ilg'or amaliyotlar bilan uyg'unlashtirishga va shu orqali O'zbekiston biznes subyektlari uchun raqobatbardosh va barqaror eksport muhitini shakllantirishni xizmat qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-dekabrdagi "Respublikada pillachilik tarmog'ini jadal rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ 4047-son qarori 8-bandi ikkinchi xatboshisi "Belgilab qo'yilsinki, mazkur bandda nazarda tutilgan imtiyoz, imtiyozni qo'llash natijasida bo'shaydigan mablag'larni texnologik uskuna olib kirilgan kundan boshlab dastlabki, 2

yil ichida chiqarishni kengaytirish maqsadida texnologik uskunalarni sotib olish uchun maqsadli tarzda yo'naltirish sharti bilan qo'llaniladi" degan ikkinchi xatboshisi bilan to'ldirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2025-yil 10-fevraldagi 03-81-00161 sonli dalolatnomasi). Mazkur taklif davlat tomonidan beriladigan imtiyozlarni JSTning SKCH Bitimi talablari bilan mos ravishda tartibga solishni, xususan ruxsat etilgan subsidiyalarni savdoni buzuvchi yoki JST qoidalari bo'yicha chora ko'rilishi mumkin bo'lgan subsidiyalardan farqlashga xizmat qiladi;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi PQ – 126 sonli "Tashqi savdo va hududiy sanoatni rivojlantirishda tadbirkorlar birlashmalarining rolini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 1 bandi va 5 – bandining 4-xat boshi shakllantirilishida foydalanilgan (O'zbekiston Adliya vazirligining 2025-yil 25-iyundagi 8-0009-02 sonli dalolatnomasi). Eksportni rag'batlantirish agentligi hamda Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi negizida Davlat aktivlarini boshqarish agentligi muassasligida "Savdoni rivojlantirish kompaniyasi" aksiyadorlik jamiyatini tashkil etish va uning ustav kapitalidagi davlat ulushini boshqarish funksiyasini ishonchnoma asosida Savdo-sanoat palatasiga berish juda ham muhim hisoblanadi. Ushbu o'zgartirish, Subsidiyalar va Kompensatsiya bojlati to'g'risidagi bitimning 10 va 12 moddalari talablariga, ya'ni shaffoflik va xavsizlik talablari ta'minlashga moslashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari aprotatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyada – 3 ta xalqaro, 2 ta milliy miqyosdagi anjumanlarda taqdim etilgan va muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Mazkur dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, jumladan, 5 ta ilmiy maqola (shundan 3 tasi xalqaro nashrlarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, umumiy hajmi 152 betni tashkil etadi (adabiyotlar ro'yxatisiz).

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi, tadqiq etilayotgan muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan mosligi, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekt va predmeti, usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, ularning joriy qilinganligi, tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi, natijalarning e'lon qilinganligi, dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi haqida ma'lumotlar bayon qilinadi.

Dissertatsiyaning **birinchi bobi** — "Subsidiyalarni tartibga solishning konseptual asoslari va JST tizimidagi huquqiy tuzilmalar" deb nomlanib, xalqaro savdo huquqi doirasida subsidiyalarning nazariy va huquqiy asoslarini o'rganadi. Bu bobda subsidiyalarning tarixiy taraqqiyoti, ya'ni Tariflar va savdo bo'yicha bosh bitim (GATT) davridan JST subsidiyalar va kompensatsiya choralari

bo'yicha bitimining (SCM bitimi) shakllanishigacha bo'lgan bosqichlar yoritiladi. Unda subsidiyalar JST huquqi doirasida qanday tasniflanishi va tartibga solinishi hamda xalqaro savdo munosabatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi yoritib beriladi.

Muallif subsidiyalarni tartibga soluvchi JST doirasidagi normalarni bir necha bosqichlarga bo'lgan holda o'rganga. Dastlab GATT 1947 doirasida asosiy e'tibor tariflarni liberallashtirishga qaratilgan. Subsidiyalar esa mumkin bo'lgan savdoni buzuvchi vosita sifatida tan olingan bo'lsa-da, unga oid huquqiy normalar – xususan, VI va XVI moddalari – yetarli darajada aniq bo'lmagan, aniq ta'riflar va protsessual kafolatlardan mahrum bo'lgan. Bu moddalarda zararli subsidiyalarni bartaraf etish uchun kompensatsion bojlarni qo'llash imkoniyati nazarda tutilgan bo'lsa-da, “subsidiyaning” aniq ta'rifi berilmagan va to'liq protsessual mexanizmlar ishlab chiqilmagan edi. GATT muzokaralari davomida tarif to'siqlari kamaygan sari, subsidiyalar proteksionizmning muqobil va shaffofligi past vositasi sifatida ko'zga tashlana boshladi. Ko'ptomonlama mexanizmlarning samarali emasligi ijrodagi qiyinchiliklar va huquqiy noaniqliklarga olib keldi. Ayniqsa, uchinchi mamlakatlar bozorlaridagi raqobatga ta'sir qiluvchi subsidiyalar GATT tizimida bevosita tartibga olinmaganligi katta muammo bo'ldi.

1973-1979-yillardagi Tokio raundida bu kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida Subsidiyalar kodeksi – ya'ni GATTning VI, XVI va XXIII moddalari talqiniga oid bitim – qabul qilindi. Bu muhim qadam bo'lishiga qaramay, kodeksning plurilateral xususiyati va cheklangan a'zolik doirasi uning normativ kuchini pasaytirdi. 1985-yilda e'lon qilingan *Leutwiler* hisobotida subsidiyalar savdoga eng katta buzuvchi ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri sifatida ko'rsatilib, bu sohaga oid yagona, majburiy huquqiy mexanizmga ehtiyoj keskinligini tasdiqladi.

Mazkur harakatlar 1986-yilda boshlangan Urugvay raundida o'zining mantiqiy davomiga yetdi. GATTga a'zo davlatlar subsidiyalarni cheklovsiz qo'llash iqtisodiy jihatdan og'ir yuk va uzoq muddatda strategik jihatdan samarasiz ekanligini tan olib, yagona huquqiy asosga kelishdi. Muzokaralar natijasida Subsidiyalar va kompensatsiya choralari bo'yicha bitim (SKCH bitimi) ishlab chiqildi – bu JST tizimida subsidiyalarni tartibga solish va kompensatsiya choralarni qo'llashga oid asosiy multilateral hujjat hisoblanadi.

SKCH bitimi “subsidiyaning” huquqiy ta'rifini aniq belgilaydi va subsidiya qanday holatlarda xos va maqsadli bo'lishi, uni taqiqlash yoki ruxsat berish mezonlari, shuningdek, kompensatsiya choralarni qo'llash tartibini belgilaydi. Ushbu bitim, JST huquqiy tizimida ilk bor yagona va to'liq subsidiyalar ta'rifini bergan hujjat bo'ldi.

SKCH bitimining 1.1(a)(1)-moddasida moliyaviy ko'mak shakllarining to'liq ro'yxati keltirilgan bo'lib, ular quyidagilarni o'z ichiga oladi: (a) to'g'ridan-to'g'ri yoki potentsial mablag'lar yoki majburiyatlar transferi (masalan, grantlar, kreditlar, kredit kafolatlari); (b) davlat daromadlaridan voz kechish (masalan, soliq imtiyozlari); (c) tovar va xizmatlarni taqdim etish yoki sotib olish (umumiy infratuzilma bundan mustasno); (d) davlat tomonidan moliyalashtirish mexanizmlariga to'lovlar amalga oshirilishi; hamda (e) davlat tomonidan xususiy subyektga subsidiya berish vazifasi yuklatilishi yoki ko'rsatmalar berilishi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob “Jahon Savdo Tashkiloti doirasidan tashqaridagi subsidiya tartibga solinishi: Erkin Savdo Bitimlaridagi (ESB)

JST+ qoidalar” deb nomlanib, subsidiya bilan bog‘liq murakkabliklarni to‘liq hal etishda JST qoidalarining chegaralanganligini ko‘rsatadi. Shu sababli, ko‘plab davlatlar subsidiya tartibotini kuchaytirish maqsadida Erkin Savdo Bitimlari (ESB) orqali yanada qat‘iyroq qoidalarni joriy etishni afzal bilgan. Ushbu bobda ESBlar doirasidagi JST qoidalarining subsidiya tartibga solinishidagi roli va ularning global miqyosdagi ta‘siri tahlil qilinadi.

Jahon savdo huquqi sohasidagi yetakchi olimlar – *Jon H. Jekson*¹ va *Luka Rubini*² kabi mutaxassislar ta‘kidlaganidek, subsidiya masalasining “murakkabligi” faqat iqtisodiy ta‘sirining ko‘p qirrali xususiyatida emas, balki amaldagi ko‘p tomonlama tizimda ularning ta‘rifi, qamrovi va tartibga solinishi borasida aniq yuridik me‘yorlarning yo‘qligida namoyon bo‘ladi. *Rubinining* fikriga ko‘ra subsidiya iqtisodiy rivojlanish uchun zarur siyosiy vosita bo‘lib xizmat qiladi, biroq xalqaro savdo huquqi bu vositalar ichida raqobatni buzuvchi subsidiya bilan foydali subsidiya o‘rtasini farqlovchi aniq va normativ asosni ishlab chiqa olmagan. SKCH bitimi subsidiya ustidan nazorat o‘rnatish bo‘yicha poydevor yaratgan bo‘lsa-da, *Rubinining* fikricha, u nazarda tutgan mexanizmlar – xususan, shaffoflik, xabarnoma berish va nizolarni hal etish jarayonlari – bugungi dolzarb muammolarni hal qilish uchun yetarli darajada samarali emas. Xuddi shuningdek, *Bagvell* va *Stayerlar*³ ham subsidiya tartibotlari hukumatlar zimmasiga boj stavkalariga nisbatan haddan tashqari yuk bo‘lishi mumkinligini, bu esa milliy siyosiy manevr qilish imkoniyatlarini cheklab, ko‘p tomonlama tizimning izchilligiga putur yetkazishini ta‘kidlagan.

So‘nggi yillarda Doha raundining to‘xtab qolishi va JST Apellyatsiya organining muzlatib qo‘yilishi ko‘p tomonlama savdo tizimiga bo‘lgan ishonchni pasaytirib, ESB va MSB (Mintaqaviy savdo bitimlari) sonining tez ortishiga olib keldi. Ushbu hujjatlar global subsidiya tartibotini isloh qilish va to‘ldirish vositasi sifatida tobora keng qo‘llanmoqda. Masalan, AQSH-Meksika-Kanada Bitimi (USMCA) va Keng qamrovli va ilg‘or Trans-Tinch okeani hamkorlik Bitimi (CPTPP) JST me‘yorlaridan ustunroq subsidiya tartibotini o‘z ichiga olgan bo‘lib, xususan, davlatga tegishli korxonalar (SOE), sektorlar bo‘yicha maxsus subsidiyalar va kengaytirilgan xabarnoma majburiyatlariga alohida e‘tibor qaratilgan.

Preferensial savdo bitimlari (PSB) va JST qoidalari o‘rtasidagi yuridik munosabatlar bo‘yicha bo‘limda xalqaro savdo tizimi doirasidagi subsidiya bilan bog‘liq nizolar ikki asosiy huquqiy asosda hal etilishini ta‘kidlaydi: JST va ESBlar. Har ikkisi nizolarni hal qilish, yuridik majburiyatlarni bajarilishini ta‘minlash hamda buzilishlar uchun chora ko‘rish bo‘yicha o‘zining alohida mexanizmlariga, protsessual xususiyatlariga va yurisdiksiyon tafovutlariga ega. JSTning Nizolarni hal qilish to‘g‘risidagi kelishuvining (DSU) 23-moddasiga muvofiq, a‘zo davlatlar faqat JST doirasidagi nizolarni hal qilish mexanizmidan foydalanish majburiyatiga

¹ John H. Jackson, “The World Trading System”, 2nd edition, Law and Policy of International Economic Relations, 2007.

² Luca Rubini, “WTO Discipline on Subsidies and Countervailing measures: Balancing Policy Space and Legal Constraints by Dominic Coppens Cambridge”, Cambridge University Press, 2014.

³ Kyle Bagwell & Robert W. Staiger, “Will International Rules on Subsidies Disrupt the World Trading System?”, 96 Am. Econ. Rev. pp. 877, 877–79 (2006).

ega. Bu, jumladan, SKCH Bitimi bo'yicha subsidiya nizolarini ko'rib chiqishda JSTga eksklyuziv yurisdiksiyani beradi.

SKCH Bitimi subsidiyalarni ikki toifaga ajratadi: taqiqlangan subsidiyalar (masalan, eksport subsidiyalari va mahalliy tarkibga asoslangan subsidiyalar) va salbiy savdo oqibatlarini keltirib chiqaradigan chora ko'riladigan subsidiyalar. Bitimning 4- va 7-moddalari ushbu ikki toifa uchun maxsus protsessual mexanizmlarni belgilab beradi hamda ijro samaradorligini oshirish uchun tezlashtirilgan muddatlarni nazarda tutadi.

ESBlar ko'pincha mustaqil nizolarni hal etish mexanizmlarini o'rnatadi, ularning yurisdiksiyasi JST bilan hamohang yoki raqobatdosh bo'lishi mumkin. Bunday bitimlarda odatda yurisdiksiyon bandler mavjud bo'ladi – masalan, *“fork-in-the-road”* (yo'l ajralishidagi tanlov), *“anti-concurrent”* (parallel yuritishni oldini oluvchi), *“JST-birinchi”* va *“ESB-birinchi”* bandleri – ular parallel sudlashish va forum tanlash amaliyotining oldini olishga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning “O‘zbekiston qonunchiligida JST subsidiyalar qoidalarining amalga oshirilishi: boshqa yurisdiksiyalardagi Erkin Savdo Bitimlari (ESB) tajribasining qiyosiy tahlili” deb nomlangan uchinchi bobida quyidagilar yoritilgan: Subsidiyalar va kompensatsion chora-tadbirlar to'g'risidagi Bitim (SKCH Bitimi) Jahon Savdo Tashkiloti (JST)ning huquqiy tuzilmasining asosiy poydevorlaridan biri bo'lib, a'zo davlatlar tomonidan subsidiyalar taqdim etilishi va tartibga solinishi bo'yicha majburiy qoidalarni belgilaydi. JSTning umumiy tizimiga mansub bo'lgan ushbu Bitim davlat moliyaviy aralashuvlarining xalqaro savdoga zarar yetkazmasligi yoki adolatsiz raqobat ustunliklari keltirib chiqarmasligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Ushbu majburiyatlarning huquqiy kuchi JSTni tashkil etuvchi Marrakesh Bitimining XVI:4-moddasiga asoslanadi, u har bir a'zodan o'z milliy qonunlari, normativ hujjatlari va ma'muriy tartibotlarini JST bitimlariga, jumladan, SKCH Bitimiga muvofiqlashtirishni talab qiladi. Bu majburiyat 1969-yilgi Shartnomalar huquqi to'g'risidagi Vena konvensiyasining 26 va 27-moddalari bilan yanada mustahkamlanadi, ularning asosida *“pacta sunt servanda”* prinsipi e'tirof etilgan va ichki huquq shartnoma majburiyatlarini bajarmaslik uchun asos sifatida ko'rsatilishi mumkin emasligi qat'iy belgilangan.

SKCH Bitimi to'rt asosiy ustunga tayanuvchi aniq va ijro etilishi mumkin bo'lgan tizimni taklif etadi: (i) subsidiyalarni tasniflash; (ii) muayyan subsidiyalarni taqiqlash; (iii) shaffoflik va xabardor qilish majburiyatlari; va (iv) salbiy ta'sirlar uchun kompensatsiya mexanizmlari. 1-modda asosida subsidiyaga hukumat yoki davlat organining foyda keltiruvchi moliyaviy yordami sifatida ta'rif berilgan.

2-modda esa Bitim doirasini faqat muayyan subsidiyalar – ma'lum korxonalar, sanoat tarmoqlari yoki geografik hududlarga yo'naltirilgan subsidiyalar bilan cheklaydi. Bu esa tartibga solish e'tiborini raqobatga eng katta ta'sir ko'rsatadigan choralari sari yo'naltirishni ta'minlaydi. Bunday yondashuv JST tomonidan tartibga solinadigan subsidiyalarni umumiy davlat xarajatlaridan farqlash imkonini beradi va bozorni buzuvchi siyosatlarni aniqlashga yordam beradi.

O'zbekiston kabi JSTga a'zo bo'lishi kutilayotgan davlatlar uchun SKCH Bitimi ostidagi majburiyatlar ikki tomonlama ahamiyatga ega. Marrakesh Bitimining XII-moddasiga ko'ra, JSTga a'zolik ushbu tashkilotning barcha

huquqiy normalarini, jumladan SKCH Bitimini qabul qilishni va uning normalariga milliy qonunchilik uyg'unlashtirishni talab qiladi. Bu esa mavjud qonunchilikni tahlil qilish va unga o'zgartirishlar kiritish, ma'muriy amaliyotlarni muvofiqlashtirish va JST subsidiyalar qoidalariga mos ravishda institutsional islohotlar o'tkazishni talab etadi. Bundan tashqari, a'zolik JST nizolarni hal etish tizimida to'liq ishtirok etishni, shu jumladan, milliy subsidiyalar dasturlarining qonuniyligi bo'yicha chiqadigan qarorlarni bajarishni ham o'z ichiga oladi.

A'zolik kelajak sari qaratilgan majburiyatlarni ham yuklaydi: O'zbekiston nafaqat mavjud subsidiyalar tizimini isloh qilishi, balki doimiy muvofiqlikni ta'minlashga xizmat qiladigan ichki mexanizmlarni – masalan, ochiq hisobotlar, o'z vaqtida xabardor qilish va subsidiyalar siyosatining oldindan baholanishi tizimini – joriy qilishi kerak bo'ladi. Ayniqsa 25-moddada ko'zda tutilgan SKCH Bitimining shaffoflik normalari JST a'zolaridan barcha muayyan subsidiyalar bo'yicha batafsil xabarnomalar taqdim etishni talab qiladi. Bu esa xalqaro kuzatuv tizimini mustahkamlash va tengdoshlar tomonidan monitoring o'rnatilishini ta'minlaydi.

Shu ma'noda, O'zbekistonning SKCH Bitimi bo'yicha majburiyatlari faqat shakliy muvofiqlik bilan cheklanmaydi. Ular davlatning iqtisodiyotga aralashuvi doirasida shaffoflik, adolat va kamsitmaslik tamoyillariga asoslangan huquqiy va institutsional madaniyatni shakllantirishni o'z ichiga oladi. Ushbu majburiyatlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonning bo'lajak JST a'zosi sifatidagi ishonchliligini oshirish va xalqaro savdoning qoidaga asoslangan tizimi doirasida barqaror bozorlarga kirish imkoniyatlarini ta'minlash uchun muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Ushbu tadqiqot JST va ESBlarda subsidiyalarni tartibga solishning xalqaro-huquqiy asoslarini tahlil qilib, O'zbekiston qonunchiligini JST subsidiyalar qoidalariga moslashtirish bo'yicha nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqdi.

I. Ilmiy-nazariy xulosalar:

1.1. Jahon Savdo Tashkiloti (JST) doirasida subsidiyalarni tartibga solish yondashuvi bosqichma-bosqich rivojlanib kelgan. Dastlabki huquqiy asoslar sifatida GATTning VI va XVI moddalarida faqat umumiy yo'riqnomalar berilgan edi. Ushbu qoidalarning cheklanganligi tariflarning keskin qisqartirilishi natijasida subsidiyalar muhim ahamiyat kasb eta boshlaganidan so'ng yanada yaqqol namoyon bo'ldi. Vaqt o'tishi bilan yanada mustahkam va keng qamrovli tartibga solish tizimiga ehtiyoj oshib bordi, natijada Urugvay raundida Subsidiyalar va Muvofiqlashtiruvchi Choralar to'g'risidagi Bitim (SKCH Bitimi) qabul qilindi. Ushbu bitim muayyan bo'shliqlarni to'ldirib, subsidiyalarni tasniflash, intizomiy tartib va muvofiqlashtiruvchi choralar qo'llash borasida xalqaro huquqiy normalarga asos bo'lib xizmat qildi.

1.2. SKCH Bitimining "subsidiyalar" tushunchasiga bergan ta'rifi muhim taraqqiyot hisoblanadi. Bitim subsidiyalarni "hukumat tomonidan moliyaviy ko'mak" va "foyda taqdim etilishi" asosida tasniflaydi. Bu konsepsiya iqtisodiy nazariyaga asoslanadi, chunki subsidiyalar tariflardan farqli o'laroq, ularning

tuzilishi va qo'llanilishiga qarab, halol savdoni qo'llab-quvvatlashi yoki buzishi mumkin. Ushbu ikki tomonlama yondashuv JSTga davlat tomonidan taqdim etiladigan turli shakldagi yordamlarni samarali tartibga solish imkoniyatini beradi va umumiy moliyaviy ko'mak bilan xalqaro savdoga jiddiy ta'sir ko'rsatadigan maxsus subsidiyalarni farqlashga zamin yaratadi.

1.3. Tariflardan farqli ravishda subsidiyalar murakkab ikki tomonlama tabiati bilan ajralib turadi, ya'ni ular nafaqat proteksionistik, balki iqtisodiy siyosatni shakllantirish vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Bu murakkablik JST tomonidan savdo erkinligini ta'minlash maqsadlarini mamlakatlarning qonuniy ichki iqtisodiy strategiyalari bilan muvozanatlashtiruvchi aniq tartibga solish yondashuvini talab qiladi. JST subsidiyalarni tartibga solish siyosatini ishlab chiqishda subsidiyalarning ijtimoiy farovonlik, iqtisodiy o'sish yoki innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash kabi umumiy manfaatlarga xizmat qilishini hisobga oladi. Shu sababli, SCM Bitimi subsidiyalarni butunlay bekor qilishni emas, balki savdoga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarning oldini olishga yo'naltirilgan muvozanatli yondashuvni ilgari suradi.

1.4. SKCH Bitimidagi "xususiylashtirish" talabi iqtisodiy jihatdan keng qamrovli maqsadlarga xizmat qiluvchi subsidiyalar bilan faqat muayyan korxonalar yoki hududga yo'naltirilgan va xalqaro savdoni buzishi mumkin bo'lgan subsidiyalarni farqlaydi. Ushbu yondashuv faqat raqobat muvozanatini buzish ehtimoli yuqori bo'lgan subsidiyalar JST intizomiga tortilishi kerakligini ta'minlaydi. Xususiylashtirish testi yordamida SKCH Bitimi umumiy ijtimoiy farovonlikka xizmat qiluvchi subsidiyalarni himoya qiladi va nazoratni faqat xalqaro raqobatga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan subsidiyalarga qaratadi.

1.5. SKCH Bitimi subsidiyalarni uch toifaga ajratish tizimidan foydalanadi, bu yondashuv odatda "svetofor" tizimi deb yuritiladi. Ushbu tizim subsidiyalarning qaysi turlari mutlaq taqiqlangan, qaysilari ruxsat etilgan, ammo tekshiruvga tortilishi mumkin, va qaysilari ma'lum shartlar doirasida savdo nizolariga olib kelmasdan saqlanishi mumkinligini aniq belgilaydi. Taqiqlangan subsidiyalar – eksport va mahalliy tarkib talab qiluvchi subsidiyalar bo'lib, ular tabiatan savdoni buzuvchi ta'sirga ega deb topilgan va shuning uchun butunlay man etilgan. Amalga oshirilishi mumkin bo'lgan subsidiyalar esa, agar ular zarar yetkazsa, manfaatlarni yo'qqa chiqarsa yoki boshqa JST a'zolariga "jiddiy zarar" yetkazsa, bahs-munozaraga sabab bo'lishi mumkin.

1.6. SKCH Bitimi JSTning kengroq huquqiy tizimi doirasida ishlaydi, u qator boshqa bitimlarni, jumladan, Qishloq xo'jaligi bo'yicha Bitim, TRIMs Bitimi va yaqinda qabul qilingan Baliqchilik Subsidiyalari bo'yicha Bitimni o'z ichiga oladi. Har bir bitim o'ziga xos savdo muammolarini hal qiladi va subsidiyalar bo'yicha muayyan tartibga solish majburiyatlarini yuklaydi. JSTning huquqiy modeli huquqiy moslashuvchanlikka ustuvorlik beradi va SKCH Bitimiga asosiy standart sifatida xizmat qilish imkonini berib, turli iqtisodiy tarmoqlarning o'ziga xos talablarini maxsus bitimlar orqali hisobga olishga yo'l ochadi.

